

## XORIJIY TILNI O'RGANISH USULLARI VA AHAMIYATI

*O'rimbetova Laura*

*Qoraqalpog'iston Respublikasi pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi  
"Tillarni o'qitish metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada chet tilini muvaffaqiyatli o'rganishning o'ziga xos uslublari va xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Maqolada chet tilini o'rganishning uslubiy jihatlari muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** xorijiy til, muloqot, suhbatdosh, yosh guruhi, lug'at boyligi, nutq, matn, musiqa.

Inson hayotda mana shu yashab turgan mamlakatning bir bo'lagi ekan uni rivojlanishi uchun bir oz bo'lsada o'z hissasini qo'shishi lozim. Ayni vaqtda uning o'sishi uchun butun dunyoda ro'y berayotgan yangiliklardan xabardor bo'lish talab etiladi va mana shu turdagi resurslardan foydalanish jarayonida chet tillarini bilish biz uchun eng muhim vosita hisoblanadi. Zamon taraqqiy etib borgani sayin insoniyat ham mukammallikka, komillikka, bilim zahirasini yanada ko'proq boyitishga harakat qiladi, dunyo ko'rishga intiladi. Ommalashib borayotgan jahon tillarini o'rganish bilan biz bir qancha afzalliklarga ega bo'lamiz qisqa qilib aytganda jahon madaniyati yutuqlaridan va axborot resurslaridan bahramand bo'lish, dunyo miqyosidagi muloqot qilish va xalqaro hamkorliklar olib borishga erishamiz. Ushbu tilni yoshlikdanoq o'rganish har kim uchun samarlidir. Ma'lumki, xorijiy tillarni o'rganishda yoshga bog'liq xususiyatlar muhim hisoblanadi. Turli yosh guruhlariga mansub bo'lgan til o'rganuvchilar o'zlari o'rganayotgan tildan turlicha foydalanadilar. Misol uchun, rus tilini o'rganayotgan maktab o'quvchisi uchun shu tilda gaplashuvchi mamlakatlar, ularning urf-odatlar va bayramlari qiziq bo'lsa ingliz tilini mukammal o'rganmoqchi bo'lgan talabalar va yoshi katta o'rganuvchilar uchun uning imkoniyatlari va globaligi muhim ahamiyatga ega.

Til o'rgatish usullari qanday?

Dunyomizda 1900-yillardan to hozirgi kunga qadar til o'rgatish sohasida turli yondashuv va usullar qo'llanilmoqda. Ular uchta asosiy guruhga birlashtirilgan: "Xulq-atvor, kognitiv va konstruktivistik". Butun tarixiy jarayon davomida ushbu yondashuvlarning maqsadlari, asosiy qarashlari va qo'llash usullarida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi.

Kognitiv usul. Kognitiv metodda o'rganish va fikrlash bir-biriga mutanosib ravishda qayta ishlanadi. Ushbu o'rganish jarayoni o'quvchilar uchun til o'rganishni yanada qiziqarli qiladi. Bu yondashuvga ko'ra, til odatlar yig'indisi sifatida emas, balki ijodiy jarayon sifatida qaraladi.

Til o'rganishning eng yaxshi usuli qanday?

Til o'rganishning eng samarali usullaridan biri, shubhasiz, o'sha tildagi gazeta, jurnal va kitoblarni o'qish sizga foyda keltiradi.

Til o'rganishning eng oson yo'li qanday?

So'z va iboralarni takrorlang: O'rganmoqchi bo'lgan tilda so'z va iboralarni takrorlash tilni o'rganishning eng asosiy usullaridan biridir. Yangi so'zlarni o'rganishda so'zning talaffuzini takrorlash va uning ma'nosini eslab qolish uchun misol jummalari bilan so'zlardan foydalanish foydalidir.

Hozirgi kunda klassik chet tili ta'limidan farqli ravishda til ta'limi usullari mavjud. Yangi usullarga ko'ra, chet tilini birinchi kundanoq gapirish orqali o'rganish kerak. O'rganish birinchi kundan boshlab gapirishdan boshlanishi kerak. Bir necha yil oldin ingliz tilini bilganlarga keyinroq kursni o'tash tavsiya etilgan.

Xorishiy tilni o'rganish samarali usullari qanday?

1. Xorijiy tilida o'yin o'ynash. O'yin o'ynash har qanday yoshda yaxshi.
2. Musiqa tinglash.
3. Doimiy ravishda eslatma olish.
4. Chet tilidagi forumlar va lug'atlarda vaqt o'tkazish.
5. Filmlar va seriallarni tomosha qilish.
6. Doimiy o'qish.
7. Suhbat guruhlarida ishtirok etish.
8. Til so'zlashadigan mamlakatlarga borish.
9. Matn ustida ishlash.

**Matn ustida ishlash.** Ushbu usullarning ichida eng samarali natijasi tez ko'zga tashlanadigan turi matn ustida ishlashdir. O'rganish istagida bo'lgan har qanday yoshdagi insonga yoshiga mos matn taqdim qilinadi va ma'nosini bilmaydigan so'zlarning tagiga chizib, ustiga tarjimasini lug'at yordamida toppish so'raladi. Ushbu usul orqali so'zlarning matn ichida va matndan tashqaridagi ma'nosi ham o'rganiladi.

Matn bilan ishlash jarayonida quyidagi usul ham juda qo'l keladi. Kichik kichik ertaklarni tarjima qilish, alohida alohida so'zlar yordamida kichik hikoyalar tuzish. Bu uslubni ahamiyatli tomoni shundaki, so'zni alohida yod olish o'rniga matn yoki jumla ichida yod olish o'rganuvchiga qulaylik tug'diradi va xotirasida so'zlar tizmasi holida saqlanib qoladi.

Istalgan xorijiy tilni o'rganishda muvaffaqiyatni ta'minlaydigan eng muhim jihat bu qobiliyat va istakdir. Qobiliyat masalasida qo'rqmasangiz bo'ladi, chunki u har bir odamda bor. 2006-yili amerikalik olim Richard Sparks o'z tadqiqotlari bilan til o'rganish uchun allaqanday olamshumul tug'ma iste'dodlar kerak degan fikr asossiz ekanini isbotladi. Istak qanchalik kuchli bo'lsa biz tanlagan matnlar ham shunchalik murakkablashib boraveradi. Aytaylik siz chet tilida ko'proq ma'lumotga ega bo'lmoqchisiz yoki ko'proq lug'at boyligi qo'lga kiritmoqchisiz. Buning uchun esa har xil mavzudagi va har xil darajadagi matnlarni tanlashingiz shart. Aks holda salom va xayrni orasi bir qadam bo'lib qoladi.

**Lug'at boyligini muntazam oshirib boring.** Kuniga 30 ta so'z yodlaysiz, ularning 5 tasi fe'l bo'lishi kerak. Har kuni lug'atdagi so'zlardan alifbo bo'yicha saralab olasiz. Masalan, bugun "A" harfidagi dastlabki o'ttizta so'z tanlansa, ertaga "B" harfidagi o'ttizta so'z tanlanadi. Alifbo bo'yicha to'liq aylanib chiqilgach, yana "A" harfining keyingi o'ttizta so'zi yodlanadi. Bu odat asta-sekin tizim bo'lib shakllanadi va yodlashingiz borgan sari osonlashadi. Ushbu usul foyda berishi uchun har kuni so'z yodlang, dam olish kuni umuman bo'lmasligi kerak!

**Musiqa yordamida til o'rganish.** Chet tilini o'rganish davomida o'rganilayotgan tilda musiqa tinglash o'sha tildagi talaffuzni yaxshilaydi va shu bilan birgalikda, ulardagi yaratuvchanlikni, o'ziga bo'lgan ishonchni orttiradi va xotirani mustahkamlaydi. Til o'rganish jarayoni o'quvchini zeriktiradigan yoki holdan toydiradigan jarayonga aylanib qolmasligi kerak. Aksincha zavq va kuchli istak bilan o'rganishda davom qilishi lozim. Bunga esa sizga musiqa yordamga keladi.

Albatta, chet tillarini o'rganish natijasida kommunikativ imkoniyatlaringiz kengayishi, nufuzliroq ishga kirish imkoniyatingiz oshishi, filmlarni va kitoblarni original tilda ko'rish va o'qish mumkinligidan xabaringiz bor. Ammo yangi tillarni o'zlashtirishning biz bilmagan boshqa jihatlari ham bor. Olimlarning aniqlashicha chet tilini o'rganishda yangi axborotni eslab qolish qobiliyati yaxshilanadi, bu o'qish vaqtini kamaytiradi. Buning ustiga, ko'p til biladiganlar bir vaqtning o'zida ko'p vazifalarni bajarishga moyil bo'ladi. 2007-yilda Chet tillarni o'qitish bo'yicha Amerika kengashi tomonidan o'tkazilgan tadqiqot doirasida xorijiy tillarni o'rganayotgan bolalar maktab dasturida matematikaga ko'proq soat ajratilgan, ammo chet tillarni

umuman o'qimaydigan o'quvchilarga nisbatan, matematika bo'yicha yaxshiroq natijalarni ko'rsatgani aniqlandi. Hayratlanarli tomoni shuki, boshqa til asoslarini o'rganish mantiqiy fikrlashni ham rivojlantirar ekan.

Shunday qilib til o'rganish jarayoni o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarga asoslangan va ushbu tilni chuqur o'zlashtirishi ko'p hollarda dars davomida o'qituvchining qanday metodlardan foydalanib, darsini qiziqarli olib borganiga bog'liq. O'rganuvchilarga til o'rganish uchun qulayliklar yaratish bizning ularga beradigan eng katta tuhfarimizdan biridir. Hozirgi kunda bir nechta tilni bilish nafaqat ishda, balki ijtimoiy, aqliy va madaniy jihatdan ham ko'p eshiklarni ochadi. Yoshlikdan til o'rganish bolalarni o'z tengqurlari orasida ajralib turishiga imkon beradi va shu bilan birgalikda, ulardagi ijodkorlikni, tanqidiy fikrlashni va muammolarni hal qila olish imkoniyatini taqdim etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.J.Xasanboyev va boshqalar.Pedagogika.Toshkent.2011 y.
- 2.J.Jalolov."Chet til o'qitish metodikasi"O'qituvchi.Toshkent.1996y
- 3.Chet tillarini o'rganishda yosh davri psixologiyasi.www. ziyonet.uz